

MAVLONO LUTFIY IJODI BOTIRXON VALIXO'JAYEV TALQINIDA

*Xasanova Dilshoda Abdug'anyievna,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU tadqiqotchisi
holidahasanova@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqola o'zbek mumtoz she'riyatining ulug' siymolaridan bo'lgan Mavlono Lutfiy ijodi tadqiqiga bag'ishlanadi. Unda Lutfiy hayoti, shaxsiyati, she'riyati poetikasi haqidagi akademik Botirxon Valixo'jayev qarashlari ilmiy tahlil etiladi. Shu bilan birga hozirgi o'zbek adabiyot ilmida shoir ijodining o'r ganilishidagi muammolarga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, Botirxon Valixo'jayevning Lutfiy lrikasi badiiyati haqidagi qimmatli fikrlari, tahlillari bilan lutfiyshunoslikka o'zining katta hissasini qo'shganliklari hamda ilk o'zbek shoirining mahoratini xolis baholaganliklari tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar. O'zbek mumtoz adabiyoti, Lutfiy hayoti va ijodiyoti, lirik asarlar, tahlil va talqin, B. Valixo'jayev qarashlari, ilmda xolislik.

BOTIRHAN VALIHOCAYEV'IN YORUMUYLA MEVLANA LÜTFI'NIN SANAT ANLAYIŞI

*Khasanova Dilshoda Abduganyevna,
Sharof Rashidov SamSU'da araştırmacı*

Özet. Bu bilimsel makale, Özbek klasik şairinin büyük isimlerinden Mevlana Lütfi'nin eserinin incelenmesine ayrılmıştır. Akademisyen Batırhan Velihocayev'in Lütfi'nin hayatı, kişiliği ve şairi sanatı hakkındaki görüşlerinin bilimsel analizi sunulmaktadır. Aynı zamanda çağdaş Özbek edebiyatı araştırmalarında şairin eserinin incelenmesindeki sorumlara da dikkat çekilmektedir. Ayrıca Batırhan Velihocayev'in Lütfi'nin şair sanatına ilişkin değerli düşünceleri ve analizleri, Lütfi araştırmalarına yaptığı büyük katkı ve ilk Özbek şairinin yeteneği hakkındaki objektif değerlendirmesi incelenecaktır.

Anahtar kelimeler. Özbek klasik edebiyatı, Lütfi'nin hayatı ve eserleri, lirik eserler, tahlil ve yorum, B. Valihöcayev'in görüşleri, bilimde tarafsızlık.

ТВОРЧЕСТВО МАВЛОНО ЛУТФИ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ БОТИРХАНА ВАЛИХОДЖАЕВА

*Хасанова Дильшода Абдуганиевна,
научный исследователь СамГУ имени Шарофа Рашидова*

Аннотация. Данная научная статья посвящена изучению творчества великого представителя узбекской классической поэзии Маулона Лютфия. Научно анализируются взгляды академика Ботирхана Валихожсаева на жизнь, личность, поэтику Лютфия. При этом уделяется внимание проблемам изучения творчества поэта в современном узбекском литературоведении. Также исследуются ценные взгляды Ботирхана Валихожсаева на лирическое творчество Лютфия, его большой вклад в лютфиологию своим анализом, объективная оценка мастерства первого узбекского поэта.

Ключевые слова. Классическая узбекская литература, жизнь и творчество Лютфи, лирические произведения, анализ и интерпретация, взгляды Ботирхана Валиходжаева, объективность в науке.

THE INTERPRETATION OF MAVLONA LUTFI'S WORK BY BATYRKHAN VALIKHO'JAEV

Khasanova Dilshoda Abduganievna

scientific researcher at SamSU named after Sharof Rashidov

Annotation. This scientific article is devoted to the study of the work of Maulana Lutfiya, one of the largest figures in Uzbek classical poetry. The views of academician Botirkhan Valikhojaev on the life, personality and poetics of Lutfiy are scientifically analyzed. At the same time, attention is paid to the problems of studying the poet's work in modern Uzbek literary criticism.

Key words. Uzbek classical literature, life and work of Lutfi, lyrical works, analysis and interpretation, views of B. Valikhojaev, objectivity in science.

Akademik Boturxon Valixo'jayev shaxsiyati va butun siyoshi bilan o'zbek adabiyotshunosligi, navoiyshunosligi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan olimlar peshvosi sanaladi. Olimning ilmiy faoliyatida o'zbek mumtoz she'riyati tadqiqi alohida mavqe egallaydi. Olimning "Malik ul-kalom mavlono Lutfiy", "Sulton Husayn Boyqaro – Husayniy she'riyati", "Mir Alisher Navoiy", Bobur she'riyatiga doir qarashlari uni Samarcand adabiy muhitida o'zbek mumtoz adabiyoti tadqiqotchisi sifatida alohida obro'-e'tibor qozonishga olib keldi. Ulug' olim Ibrohim Haqqulov olimlik rutbasi haqida shunday yozadi: "Ko'nglida, ruhida fayz bo'lmasa – olimning ilmida fayz bo'lmaydi. Shuningdek, mustaqil fikr, erkin mushohada, jonli uslubdan mahrum olim borki, aksariyati quruq ma'lumotga yopishib, nuqlu fakt chaynashdan nari o'tolmaydi. Bunday holda tadqiq etilayotgan mavzudan katta ilmiy xulosa yoki o'ziga xos umumlashmalar chiqarish to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas. Zero, olimni yakranglik va sayozlik tuzog'idan qutqaruvchi xaloskor uning benazir shaxsiyati – butunlashgan shaxsidir"[8; B.212].

Botirxon Valixo'jayev shunday mustaqil fikr, erkin mushohada, akademik uslubga, benazir shaxsiyatga ega bo'lgan, har qanday manfaat va g'arazlardan xoli iste'dod sohibidir. Uning Lutfiy haqidagi tadqiqotlari adabiyotshunoslikda ilmiy teranligi, xulosa va faktlarga boyligi, tahlil va talqinlarda iste'dodli shaxsning nigohi, keng ilmiy mushohadalarga suyanganligi bilan alohida ajralib turadi. Olim Lutfiy lirikasi tahlili takomilida shoir biografiyasining muhim jihatlariga to'xtaladi, fanda bahs-munozaralarga sabab bo'layotgan muammoli vaziyatlarga ilmiy faktlar bilan, ba'zan ilmiy farazlar orqali aniqlik kiritishga, isbotlashga harakat qiladi. Olim mavlono Lutfiy ta'rifi keltirishda, uning hayoti va ijodiga doir ma'lumotlarning eng mukammal manbasi bu Alisher Navoiy asarlarida zuhur etganligini alohida urg'ulaydi. Alisher Navoiy mavlono Lutfiyni Firdavsiy, Nizomiy, Xaqoniy, Anvari, Sa'diy, Xofiz Sheroyi kabi Sharqning zabardast shoirlari qatoriga qo'yganligini, ya'ni "muqobalasida kishi paydo bo'lmadi bir mavlono Lutfiyydan o'zga" deb yozganligini faxr bilan tilga oladi. Lutfiy hayoti va ijodi o'zidan ham oldin o'rganilganligini eslab o'tadi. Xorijiy olimlar bilan bir qatorda, Abdurauf Fitrat, Hodi Zarif, E.Rustamov, S.Erkinov, N.Mallaev, E.Ahmadxo'jayevlarning turli ko'rinishidagi tadqiqotlarini yuqori baholagani tadqiqotchining ustozlarga hurmati hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, Lutfiyning tarjimai holi, ijodiyotida hamon bahstalab muammolar borligini ta'kidlab, "Ana shu jarayonda masalaga istiqlol mafkurasi, xolislik va tarixiy asoslanganlik nuqtayi nazaridan yondoshilsa mavlono Lutfiyning

go'zal badiiy olami, dunyoqarashidagi rang-baranglik va ma'no jilolari yanada yorqinroq namoyon bo'lib, uning so'zi sehri, so'z mulkining sultoni ekanligi ayon bo'lib boraveradi" [3; B.6], - deydi. Olim Lutfiy haqidagi mavjud ma'lumotlarni sinchiklab o'rganadi va izlanish asnosida shubhali holatlarga duch kelsa yoki mavjud ma'lumotlar aksi aniqlansa, ularga ilmiy aniqlik bilan o'z fikr-mushohadalarini bildiradi, muhim nazariy qarashlarni o'rtaga tashlaydi. Gap shundaki, olim mutlaq ilmiy gegemonlikni ilgari so'rmaydi. Bular yanada chuqurroq izlanishlarni, tadqiqotlarni talab etadi deb munosabat bildiradi. Bunday noaniq, muammoli ma'lumotlardan Lutfiyning tug'ilgan joyi, tug'ilgan yiliga oid bir nechta muammolarni misol keltirib o'tadi. Olim "Ammo keyingi vaqtarda ilmiy muomalaga kiritilgan "Funun ul-balog'a" asarida (u 1437 yilda Shayx Ahmad Taroziy tomonidan yozilgan) shoir Lutfiy ham eslatilib u "Ma'dan ul-latoyif Lutfiyi Shoshiy" hamda "Lutfiyi Shoshiy aytur" tarzida tilga olingan ekan", - degan mulohazaga asoslanib uning vatani Toshkent emasmikan deb yozadi va bunga cheklanib qolmasdan yana bir nechta asoslar keltirib o'tadi. Lutfiyning hayoti va faoliyatiga oid biografik ma'lumotlarni uning g'azallari, lirkasidan ham izlashni ma'qullaydi. Uning Boysung'or Mirzo Shohruh Mirzolar davridagi umrguzaronligini ilmi ash'ori tarkibidan izlash maqsadga muvofiqdir, deb yozadi.

Lutfiy Hirida golmadi she'ringga mushtari,

Azmi Hijoz qilki, maqoming Iroq emish.

Shoirning mazkur she'rlariga diqqat qaratib, unda Hirot hamisha ham mavlono Lutfiyni tegishli tarzda e'zozlamagani xulosasini she'rlari mazmunidan topadi. Yoki yuqorida keltirilgan baytning maydonga kelishida shoirning o'zi ta'kidlagan "Lutfiykim ojun xonlarini ilmadi ko'zga" degani va ayrim hukmdor xizmatida bo'limgani sabab bo'ldimikin? degan ilmiy mushohadaga ham boradi.

Yo'qturur yolg'iz bu Lutfiy jonig'a javri raqib,

Qayda bir donodurur, ul javri nodon tortadur.

Olim bu kabi g'azallardan olingen baytlardan o'z ilmiy qarashlariga isbot to'playdi. Olimning zukkoligi, xolisligi shundaki, barcha ma'lumotlarning asosida adabiyotshunos olimning shaxsiy qarashlari yotganligini tadqiqotchilar, albatta, hisobga olishlarini istaydi. Bu bilan olim ilmiy izlanuvchi tadqiqotchilarga ilmiy yondashuvning zaruriy jihatlarini ham eslatib qo'yadi. B.Valixo'jayev ma'lum bir vaqt Lutfiyga nisbat berilib kelgan "Gul va Navro'z" dostoni haqida to'xtaladi. Bu jarayonda Haydar Xorazmiy haqida ham ma'lumot berib o'tadi. O'quvchi-kitobxon Haydar Xorazmiy haqida ham qiziqarli, yangi ma'lumotlarga ega bo'ladi. Lutfiyning "Zafarnoma" tarjima asari to'g'risida ham sinchkovlik bilan o'rgangan, boshqa tadqiqotlarda uchramaydigan ilmiy qarashlarini o'rtoqlashadi. Bu ijodiy izlanuvchanlik keyingi ilmiy tadqiqotlarga turtki beradi. Undan fikr qilishni, xulosalar chiqarishni o'rganadilar, olim tomonidan eslatilgan, o'z tadqiqotini kutib yotgan ilmiy ishlar jadallahuviga bu tadqiqotlarning xizmati katta ekanligini bemalol xulosa qilish mumkin. Mavlono Lutfiy she'riyati, janrlar tasnifi S.Erkinov, E.Fozilov, E.Ahmadxo'jaev nashrga tayyorlagan "Sensan sevarim" to'plamida xatolar mavjudligini aniqlab, uning janrlarini quyidagi holatda bo'lishligini ma'qullaydi: 1. G'azal, 2. Qasida, 3. Ruboiy, 4. To'rtlik, 5. Tuyuq, 6. Qit'a, 7. Fard. Vaholanki, bu ko'rinish yuqorida nomlari keltirilgan, nisbatan to'liq deb e'tirof etiladigan "Sensan sevarim" [5] to'plamida janrlar ko'rinishi beshga bo'lib o'rganilgan. Domla ular yo'l qo'ygan xatolarni aynan ko'rsatadi va devondagi janr ko'rsatgichlarini misollarda, tahlillarda isbotlab beradi. Shoir she'riyati janrlar bo'yicha alohida-alohida o'rganiladi. G'azal xususiyatlari deyilganda olim ularning hajmi – har bir g'azalni tashkil etgan baytlar soni, g'azalning mavzu doirasi, timsollari, badiiy xususiyatlarini nazarda tutadi:

1. Baytlari mantiqiy va mavzu jihatdan bog'langan yakpora g'azallar.
2. Har bir bayti alohida mavzuga bag'ishlanib, g'oyaviy jihatdan birlashuvchi baytlardan iborat g'azallar [5; B.38].

Mazkur guruhlarga mansub bo‘lgan g‘azallar qanday xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanishini adabiyotshunos quyidagi “ayting” radifli g‘azali tahlili orqali isbotlashga urinib ko‘radi. G‘azalning umumiy mavzusi oshiqning ma’shuqa-mahbubi hijronidan shikoyat mavzusi bo‘lib, undagi tamsil obrazlar oshiq-ma’shuqa va uchinchi shaxsdan iborat. Bu timsol obrazlarning sifatlari baytlarda birin-ketin tasvirlangan. Ana shu asosda quyida ularni tahlil va talqin qilish maqsadga muvofiqligini yozadi. Lutfiyning g‘azalchilikdagi mahoratini olim uning so‘z ishlatishga katta e’tibor bergenligida ko‘radi. G‘azalda hammasi bo‘lib 61 ta mustaqil va yordamchi so‘z ishlatilgan. Shunisi ham borki, birinchi, ikkinchi va uchinchi baytlarning har misrasida oltitadan, baytda esa o‘n ikkitadan so‘z ishlatilib, to‘rtinchi baytning birinchi misrasida sakkizta, ikkinchisida beshta baytda esa o‘n to‘rtta so‘z ishlatilgan. Maqta’da esa birinchi misrada oltita, ikkinchisida beshta, baytda hammasi o‘n bitta so‘z ishlatilgan. Demak, o‘n misrada oltmish bir so‘zning ishlatilishi – qariyb hammasida teng miqdorda so‘zlarning bo‘lishi, albatta, vaznning talabi asosida ekanligi va unda chekinishlarga yo‘l qo‘ymasliklariga harakat qilinganidan guvohlik beradi.. Eng e’tiborlisi nozik kuzatuvar natijasi o‘laroq yuzaga kelgan xulosada 61 so‘zdan 43 tasi bir martadan ishlatilgan. Demak, sinonim so‘zlarni ham qo‘sib hisoblaganda g‘azalda 70 % dan ko‘proq so‘z takror bo‘lmagan so‘zlardir. Undan tashqari adabiyotshunos “Agar biz fors-tojik so‘zlaridan “gul”, “dard”, “sham”, “gado”, “g‘uncha”, “jonon” kabi so‘zlarning umumiy forsiy-turkiy ekanini hamda arabcha so‘zlardan “hajr”, “qissa”, “hol”, “ahvol”, “lutf”larning ham umumiy arabiyy-turkiy ekanini nazarda tutsak, unda turkiy so‘zlarni g‘azalda ishlatilishi yanada ortadi, deb yozadi. Dunyoda hech bir til boshqa tillarning aralashuvlari, ta’sirisiz alohida rivojlanmagan. Bu hammaga ravshan haqiqat. Domla nazar tashlagan “forsiy-turkiy”, “arabiyy-turkiy” so‘zlar shu xalq tili asosiga singib ketgan. Ularni hozir ajratish qiyin. Shuning uchun ham olim ularni yuqorida qayd etilgan nom bilan ataydi. Bu so‘zlar badiiy uslubda ham so‘zlashuv uslubida ham bir xil ishlatiladigan faol turkiylashgan so‘zlardir. Adabiyotshunos kuzatishlari shuni ko‘rsatadiki, Lutfiy XV asrda ham sakson foiz turkcha so‘zlardan foydalanib g‘azal yaratgan ekan, demak, u Navoiy tilga olgan, Husayn Boyqaro davlat tili deb e’lon qilgan turkiy tilga sodiqligini namoyon qilganligini yana bir karra isbotidir. Zero, domlaning tadqiqotlari ayrim bugungi zamonaviy o‘zbek shoirlariga ham dars bo‘larli darajada yuqori saviyada yozilgan ilmiy ishlardandir. G‘azalning yana badiiy mukammalligiga asos sifatida olimning bir e’tirofini ham keltirish mumkin. U “G‘azalda keltirilgan so‘zlarning birortasini qoldirish yoki tashlab ketish mumkin emas. Agar shunday qilinsa, unda g‘azalning yaxlitligiga putur etadi. Timsollarni tavsiflashda g‘azal vazni, ohangdorligi, jozibadorligiga noqislik yuzaga keladi” [5; B.45], - deydi. Olim g‘azal mohiyatini ochishda oshiq-ma’shuqa timsolini mantiqan asosli qilib yoritib beradi. Bu tahlillardagi uzviylik tadqiqotchining mumtoz adabiyot va she’riyatning nihoyatda zukko bilimdoni ekanligini isbotlaydi. Birinchi qutb – oshiq g‘azalning asosiy harakatlantiruvchi, so‘zlovchi timsoli hisoblansa, ikkinchi qutb – ma’shuqa ko‘rinmaydi, uning sifatlari, xususiyatlari oshiq tomonidan bayon qilinadi. Shuning uchun ham oshiq o‘z holini bayon qilib, uchinchi shaxsga murojaat qiladi va unga mening holatimni “ayting” deb yolvoradi. Demak, g‘azal mohiyatan oshiqning monologi tarzida bo‘lib, u hijron kunlaridagi ahvoidan, xasta – kasalligi, yuragining qonligi, bu qonlar ko‘z yoshlarga aylanib, yulduzlar kabi hisobsiz tarzda yuziga oqayotganligi lavhasining tasviri chiziladi. Bu lavha lirizm bilan sintezlashgan epizm – hikoya bo‘lib, undagi lirizm oshiq ruhiy holatini jozibali tasvirini bersa, epizm bo‘layotgan voqeanning nozik nuqtalarigacha qalamga olinishida ko‘rinadi. G‘azaldagi ikkinchi timsol – ma’shuqa hisoblanadi. Ma’shuqa g‘azalning faol qatnashchisi emas, chunki u oshiq monologi so‘zlanayotgan makon va zamonda yo‘q, ammo u oshiq xayolida hoziru nozirdir. Oshiq barcha sifatlarni unga tirkab, uning botiniy go‘zalligini ko‘z oldimizga keltiradi. “Sha’mi shabiston”, “guli xandon”, “ko‘zlar cho‘lpon” kabi sifatlashlar buni isbotlaydi. Tasvirda oshiqning ko‘z yoshlari uning zohirida ayanchli holat mavjudligini ko‘rsatadi, ma’shuqaning botinidagi

go‘zallik, o‘ynoqilik yor zohirining go‘zalligini ham namoyish qilib beradi. Shunga ko‘ra, olim “...ikki timsol tasvirida ikki xil tasvir uslubi ishlatilib, biri ikkinchisini takror etmasa-da, ammo oqibatda ularning o‘zaro uyg‘unldigi, yaxlitligi, ya’ni zohirda botin-u botinda zohirning ko‘rinishini maydonga keltirgan. Bu esa movlono Lutfiyning adabiy – shoirlit mahoratining namunasi sifatida diqqatga sazovor”, - deb qat’iy xulosaga keladi. Taniqli folklorist Xodi Zarif Lutfiy mahoratini shunday xarakterlaydi: “Lutfiy o‘z she’rlarida reallik berishga intiladi, real turmushda bu hodisalar va tushunchalarga ko‘proq e’tibor beradi, ya’ni fikrni real turmush bilan bog‘lash uchun urinadi, o‘xshatishlar, mubolag‘alar va obrazlarni shu turmushdan yoki xalq o‘rtasida singib qolgan tushunchalardan oladi, bularni juda katta so‘z ustaligi bilan bezaydi va shuning bilan fikrning jozibali ravishda tez singishini ta’min etadi” [9; B.54.]. Botirxon Valixo‘jayev ikkinchi guruhgaga mansub bo‘lgan, ya’ni bir bayti alohida mavzularga bag‘ishlanib, g‘oyaviy jihatdan birlashuvchi baytlardan iborat g‘azallarga ham to‘xtalib o‘tadi. Bu o‘rinda olim Alisher Navoiy tomonidan “Majolis un-nafois”da matla’si ma’qullangan g‘azalni tahlilga tortadi.

*Sayd etti dilbarim meni oshufta sochtin,
Soldi kamand bo ‘ynima ikki qulochdin.
Husning chog‘inda to ne adabsizlik etti gul,
Kim yuzini qonatti sabo zaxmi kojtin.
Qandin teng o ‘lsun ul shakar irning bila nabot,
Ma ’lum erur tafovuti ikki yig‘ochtin.
Gar shona ursa zul funga mashotayi nasim,
Chiqqay hazor xalqa ko ‘ngil tugma sochtin.
To ‘yguncha qo ‘y yuzing sori Lutfiyni boqqali,
Ne ‘matni boy kishi ayamas chunki ochtin[2;B.117].*

Olim ta’kidlashicha, g‘azalning matla’si hazrat mir Alisher Navoiy nazarlariga tushgan. Uni Navoiy janoblari “mutaaazzir ul-javob” – javob aytish nihoyatda mushkil bo‘lgan matla’ tarzida yuqori baholaydi. Buning sababi deb yozadi olim, - Lutfiy bu baytning o‘zidagina ajoyib ov manzarasani kishi ko‘z o‘ngida gavdalantiradi, kitobxon ko‘z o‘ngida o‘sha sahnani tasvirlab ko‘rsatadi. Tasavvur eting: keng ov maydoni. Unda turli jonivorlar yuribdi. Ovchi esa qo‘liga komand – arqon bilan jonivorlarni birini ov qilish uchun qulay fursat kutib o‘tiribdi. Mana qulay fursat ham yetti, ovchi ko‘zlagan sayd – jonivor yaqinlashdi. Shunda ovchi – sayyod qo‘lidagi komandni chaqqonlik bilan ovning bo‘yniga tashlab, uni o‘ziga tomon tortayapti. Sirtmoqqa ilingan jonivor esa qutilishga intilmoqda, ammo sirtmoq bo‘yniga mahkam yopishib, uni bo‘ysunishga majbur qilmoqda. Oqibatda ovchi jonivorni qo‘lga kiritdi... shoirlit baytda ovchi o‘rnida dilbarni, ovchining komandi – arqoni o‘rniga dilbarning ikki quloch keladigan sochini, jonivor o‘rnida esa oshiqni qo‘yib, chiroli lavha yaratgan. Olim hikoya qilish qobiliyatini ishga solib, oddiy kitobxonga ham tushunarli bo‘lgan, g‘azal badiiyatini bo‘rttirib ko‘rsatishga xizmat qiladigan tasavvur manzarasini yaratadi. Olimning tahlil jarayonidagi o‘ziga xosligi, mahorati barchani o‘ziga rom etadi. Adabiy tanqid fan bo‘lishi bilan birga, estetik hodisa – badiiy asar ham ekanligini shu o‘rinda ko‘rish mumkin. Keyingi o‘rinlarda olim mazkur she’rni baytma-bayt tahlilga tortgan. Nuktadon tadqiqotchi mumtoz adabiyot bilimdoni sifatida o‘zini namoyon qilgan. G‘azalda har bir jumla, so‘z olim nazaridan chetda qolmagan, o‘zini matnshunos sifatidagi fazilatini ko‘rsatgan. Olim g‘azalning to‘rtinchı baytida Lutfiy to‘plamida ketgan xatolikni tuzatadi va ilmiy xulosalari, tahlillari bilan asoslab beradi.

*Gar shona ursa, zul fungga mashshotayi nasim,
Chiqqay hazor xalqa ko ‘ngil tugma sochtin.*

Shu baytdagi “tugma” so‘zi “sensan sevarim” to‘plamida “tekma” tarzida yozilgan. Ammo “tekma” bu o‘rinda mantiqan to‘g‘ri kelmaydi. U “tugma” (tugmoq fe’lidan, tugunli, o‘ralgan,

chirmashgan) tarzida o‘qilsa, unda sochning holiga (chirmashgan, o‘ralib qolgan) mos keladi va u taralgach tekislanadi, tugun ochiladi. Baytning mazmuni ham xuddi ana shunday o‘qilishni talab qiladi, deb yozadi. Botirxon Valixo‘jayev so‘zdagi birgina harf bilan ma’noning butunlay o‘zgarib ketishini nozik anglaydi. Olimlar yo‘l qo‘ygan jiddiy xatolikni sinchkov kuzatishlari natijasida bartaraf etadi. Olim so‘zning isboti sifatida mazkur baytni mukammal tahlilini ham beradi. Birgina so‘zning baytdagi vazifasi nihoyatda yuqori ekanligini kitobxon – izlanuvchilar tushunib etadi. G‘azalda soch tasviri bilan boshlangan manzara, tasvir to‘rtinchchi baytga boriboq yana soch lavhasini chizishga o‘tadi: tugmalangan – tugilgan, yopishgan tugma sochni nasim mashshotasi shona bilan tarasa, tugma sochning tekislangan – ochilgan har bir halqasida mingta ko‘ngil chiqaveradi. Bu bilan shoir birinchi bayt – matla’dagi tasvirni yanada kuchaytiradi va o‘z fikrini tasdiqlaydi. Ya’ni dilbarga intiluvchi ko‘ngillar, oshiqlar ko‘p, shuning uchun dilbarning jingalak sochlari, halqalari ham sonsiz bo‘lib, har halqada bir oshiqning ko‘ngli “bandi” – bandga yo‘liqqan, ammo ularga dilbar shafqat qilmaydi, faqat shamol mashshotasining sochga shona urishi ularni banddan qutqaradi, deb ajoyib o‘xshatishlar bilan g‘azalning estetik jozibasini ohib beradi. Tahlillardagi nozik didlilik, Sharq she’riyatining jozibasini anglab etgan, anglata bilgan olim tadqiqotlari badiiy asar kabi o‘qiladi, o‘quvchini oson o‘ziga rom etadi.

Botirxon Valixo‘jayev Lutfiy she’riyatining asosiy maqsadi, vazifasini insonning mo‘jizaviy zot ekanligini obraz va timsollarda ko‘rsatishdan, isbotlashdan iborat deb biladi. Shuning uchun ham tabiat go‘zalliklari inson tufayli ekanligini tasvirlashga e’tibor qaratadi. Shu jihatdan inson uzvlari – yuz, og‘iz, lab, qulqoq, bilak, sochlari tabiatdagi gul, lola, dur (qimmatbaho tosh), kumushlar bilan mutonosib tarzda tilga olinib, tabiat ash’yolarini inson oldida xijolatda qoldirishlari natijasida maydonga kelgan go‘zal tasvirlar nihoyatda nozik shoirona nigoh, tasavvur mahsuli sifatida kishini hayratatlantiradi, deb yozadi:

1. *Gul eltur ol o‘yla chehradin rang,
Qizarsa o‘g‘ri uchun el urar koj.*
2. *Gul kamaringdan o‘g‘irlab oldi jamol, aning uchun,
Shohi rabe’ oni tikon doriga o‘g‘ritek osar.*

Mazkur baytlar ikkita mustaqil g‘azallardan olingan. Unda gul timsoli orqali turli xil obrazlar yaratgani uchun olim uni tahlilga tortadi. Birgina gul so‘zidan katta ijtimoiy mazmun yaratgan Lutfiy ijodining yuksak saviyada ekanligini tahlillarda ko‘rsatadi. “Gul”, “yuz”, “husn” tanosib san’atini hosil qilgan. Bular ma’shuqaning yuzidan rang va jamol (chiroy) o‘g‘irlagani uchun xijolatda va faqat xijolatda emas, balki u “o‘g‘rili” uchun jazolanadi ham. Bunday jazolardan biri nasim – el uning yuziga koj (shapati) urib gulning yuzini qonatgani bo‘lsa, ikkinchisi gulning o‘g‘ridek “tikon doriga” osilganidir. Bunday go‘zal shoirona nigohni o‘z uslubida tasvirlaydi olim. Adabiyotshunos tomonidan Lutfiyning to‘plami janrlari tasnifiga kiritilgan “To‘rtlik xillari, mavzu va badiiyati” sarlavhasi ostida birlashtirilgan to‘rtlik, ruboiy, qit’a, tuyuq kabi janrlar borasida ham atroflicha fikr yuritiladi. Ayrim lirik namunalar tahlilga tortiladi. Olim nazarida, tuyuqni ikkiga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bular: qit’a tuyuq, to‘rtlik tuyuqdir. To‘rtlik tuyuq to‘rt misradan iborat bo‘lib, uning qofiyalanishi “a-a-b-a” tarzidadir. Qofiyalanuvchi so‘zlar esa shaklan yoki talaffuz jihatidan o‘xhash bo‘lib ma’no jihatdan bir-biridan farq qiladi:

*Ko‘z yoshim tuproq ila gar qotila,
Kelmagayman javridin haqqotila.
G‘amzası o‘ltirdiyu ul bexabar,
Men agar o‘lsam ne g‘am ul qotila[5].*

Birinchi misradagi “qotila” – qotilmoq, qo‘silmoq ma’nosida, ikkinchi misrada esa “haqqo tila” iborasi talaffuz etish orqali maydonga kelgan bo‘lib, birinchi misradagi “qotila” so‘zi bilan omonimdir. Ya’ni, bu so‘zning ma’nosи “yorning javridin tilim kalimaga kelmaydi, og‘iz ocha

olmayman”. To‘rtinchi misradagi “qotila” esa “qatl etuvchi, o‘ldiruvchi” ma’nosida keladi”, deb tuyuqning asosiy ma’no, mazmunini izohlab bergen. Haqiqatan ham, an’anaviy tuyuqlarda omonim (tajnis) so‘zlar farqini bilishning o‘zi asar badiiyatini, mohiyatini, qolaversa estetik qimmatini anglash sari qo‘ylgan asosiy qadamdir. Shuning uchun adabiyotshunos tuyuq tahlilida uning mazmunini birma bir olib ko‘rsatmaydi, maydalashmaydi, balki kitobxonni o‘zi bilan birga olib yuradi, mohiyatni anglashga chaqiradi. Qit’a tuyuqlarda esa misralar soni to‘rtlik tuyuqlarga aynan o‘xshash bo‘ladi, faqat qofiya tizimida farqlar ko‘zga tashlanadi: “a-b-a-b” tarzida qofiyalanadi. Demak, ularda omonim (tajnis) ikkinchi va to‘rtinchi misralarda ishlatalidi.

Vahki, men bexudlig ‘imdin, ey sanam,

Oy yuzingni ko‘rmadim bir kun qona.

Qonima to‘ksang raqiblar shod o‘lur,

Itlaringni zavqi bor, ore, qona.

Mazkur qit’a tuyuqda ikkinchi misradagi omonim so‘z “qonib”, ya’ni “to‘yib” ma’nosida kelgan bo‘lsa, to‘rtinchi misradagi “qona” so‘zi turkona talaffuzga mos ravishda “qonga” so‘zi ma’nosida kelganligi olim kuzatishlarida isbotlab beriladi.

Xulosa qilib aytganda, Botirxon Valixo‘jayev Lutfiy lrikasi badiiyati haqida qimmatli fikrlari, tahlillari bilan lutfiyshunoslikka o‘zining katta hissasini qo‘shadi. Ilk o‘zbek shoirining mahoratini xolis baholaydi. Uning nozik kuzatishlari, matnshunos olim sifatidagi noyob fazilati iste’dodli shoirning bahstalab yoki tuzatilishi mumkin bo‘lgan matn muammolarini bartaraf etadi hamda uning badiiy olamini yanada yorqinroq, badiiy mukammalroq qilib etkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Valixo‘jayev B. Saylanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2012
2. Valixo‘jayev B. Saylanma. II qism. Samarqand. SamDU nashri, 2022
3. Valixo‘jayev B. Malik ul-kalom mavlono Lutfiy. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 1999
4. O‘zbek mumtoz adabiyotshunosligi. Antologiya. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2016
5. Lutfiy. Sensan sevarim. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987
6. Qayumov A. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash’orlar. – Toshkent: “SHarq” nashriyoti, 2014
7. Husayn Boyqaro. Devon. Risola. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968
8. Haqqul I. Talant – jasorat javhari. - T.: “Muharrir” nashriyoti, 2018
9. Hodi Zarif. Fozillar fazilati. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1969
10. Buriyeva, F. (2024). Zamonaviy she’riyatda diniy-tasavvufiy mavzu va timsollar an’anaviyligi. *Miasto Przyszlosci*, 53, 1347-1350.